

## VII. ISTE'MOL BOZORI


2021 yilning yanvar-sentabrida chakana savdo tovar aylanmasi 6 004,6 mlrd. so'mni yoki 2020 yilning shu davriga nisbatan 108,1 foizni tashkil qildi.

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasi 790,5 mlrd. so'mni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 13,2 foizni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning chakana savdo tovar aylanmasi 2 072,5 mlrd. so'mga yetdi, umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 34,5 foizni tashkil qildi.

Umumiy tovar aylanmasi hajmida 3 141,6 mlrd. so'm yakka tartibdagi tadbirkorlar va jismoniy shaxslarning hisobiga to'g'ri keldi va o'sish sur'ati 2020 yilning shu davriga nisbatan 122,6 foizga yetdi. Jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmida ushbu sektor ulushi 52,3 foizga teng bo'ldi.

### Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, % da (2021 yil yanvar-sentabr)




2021 yilning yanvar-sentabrida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi davlat va nodavlat shakllari bo'yicha quyidagicha ifodalanadi.

Davlat mulki 0,5 mlrd. so'mni yoki o'tgan 2020 yilning shu davriga nisbatan 3,4 foizni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 0,01 foizni tashkil qildi.

Nodavlat mulki 6 004,1 mlrd. so'mni yoki o'tgan 2020 yilning shu davriga nisbatan 114,9 foizni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 99,99 foizni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmining eng katta ulushi Jizzax shahri hisobiga to'g'ri keldi va 21,7 foizni tashkil etdi, Baxmal tumani 21,8 foizni, Sharof Rashidov tumani 12,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, Yangiobod tumani 1,0 foiz, Zafarobod tumani 1,6 foiz va Arnasoy tumani 2,2 foiz ulush bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.

### Hududlarning jami chakana tovar aylanmasidagi ulushi




### 2021 yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi

	Chakana savdo hajmi, mlrd. so'm	2021 yil yanvar-sentabriga nisbatan foiz hisobida	Umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida
<b>Jami</b>	<b>6 004,6</b>	<b>108,1</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
yirik korxonalar	790,5	101,9	13,2
kichik tadbirkorlik	4 211,9	106,2	70,1
shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi	1 002,2	118,0	16,7

**2021 yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning  
chakana tovar aylanmasi**  
(umumiy ovqatlanish tashkilotlarini qo‘shgan holda)


	<i>Jami</i>		<i>Aholi jon boshiga</i>	
	<i>Hajmi, mlrd. so‘m</i>	<i>2020 yil yanvar- sentabriga nisbatan foiz hisobida</i>	<i>ming so‘m</i>	<i>2020 yil yanvar- sentabriga nisbatan foiz hisobida</i>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>6 004,6</b>	<b>108,1</b>	<b>4 220,6</b>	<b>105,8</b>
<i>shahar:</i>				
Jizzax	1 301,3	101,0	7 142,3	99,0
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	133,2	105,8	2 847,2	104,3
Baxmal	1 311,0	119,5	8 153,3	116,9
G‘allaorol	540,0	100,9	3 059,6	98,8
Sharof Rashidov	738,9	102,3	3 231,9	99,6
Do‘stlik	215,7	124,3	3 219,5	122,1
Zomin	794,6	107,6	4 715,6	105,3
Zarbdor	217,5	126,1	2 444,1	122,8
Zafarobod	95,3	101,4	1 872,2	99,8
Mirzacho‘l	158,9	109,9	3 003,8	108,0
Paxtakor	236,9	115,3	3 104,4	113,0
Forish	203,6	100,5	2 156,6	99,0
Yangiobod	57,7	101,2	2 003,1	99,4

**2021 yil yanvar-sentabr oylarida, chakana savdo  
tovar aylanmasining o‘shish sur‘atlari**  
(ovqatlanish tashkilotlarini qo‘shgan holda, % da)




Viloyatning barcha hududlarida o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘shish sur‘atlari kuzatildi. Xususan, yuqori o‘shish sur‘atlari Zarbdor tumani (126,1 %), Do‘stlik tumani (124,3 %), Baxmal tumani (119,5 %), Paxtakor tumani kuzatildi.

**2021 yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati, % da**




Hududlar bo'yicha olib qaralganda, kichik tadbirkorlikning chakana tovar aylanmasi hajmi nisbatan yuqori bo'lgan hududlar Jizzax shahri (1160,7 mlrd. so'm), Sharof Rashidov (737,5 mlrd. so'm), Zomin (762,9 mlrd. so'm), G'allaorol (528,5 mlrd. so'm) va Baxmal (737,3 mlrd. so'm) tumanlari hisoblanadi.

**Tumanlarning umumiy ovqatlanish korxonalari tovar aylanmasi mlrd. so'm, o'sish sur'ati, % da (2021 yil yanvar-sentabr)**



Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi umumiy hajmida yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida (47,3 mlrd. so'm) hamda Sharof Rashidov (17,2 mlrd. so'm), Zomin (6,7 mlrd. so'm) va G'allaorol (5,9 mlrd. so'm) tumanlarida, eng past ko'rsatkich esa Yangiobod (0,6 mlrd. so'm), Arnasoy (0,7 mlrd. so'm) va Zafarobod (0,8 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarining tovar aylanmasi (mln. so'm)**  
(2021 yil yanvar-sentabr)



**2021 yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning ulgurji tovar aylanmasi**

2021 yilning yanvar-sentabr oylarida ulgurji savdo aylanmasi 1 674,2 mlrd. so'mni yoki 2020 yilning shu davriga nisbatan 106,0 foizni tashkil etdi.


Yirik korxonalarining ulgurji savdo aylanmasi 418,4 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan 122,7 foizni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo aylanmasi 101,4 foizni tashkil etib, 1 255,8 mlrd. so'mga yetdi hamda umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi 75,0 foizni tashkil qildi.

**Hududlar kesimida ulgurji tovar aylanmasi**  
(2021 yilning yanvar-sentabr)

	<i>Hajmi, (mlrd. so‘m)</i>	<i>Jamiga nisbatan, foizda</i>	<i>2020 yil yanvar-sentabriga nisbatan foizda</i>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>1674,2</b>	<b>100,0</b>	<b>106,0</b>
<i>shahar:</i>			
Jizzax	914,3	54,6	105,6
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	2,9	0,2	24,0
Baxmal	147,2	8,8	161,2
G‘allaorol	43,5	2,6	106,4
Sharof Rashidov	98,2	5,9	89,1
Do‘stlik	164,3	9,8	207,2
Zomin	162,2	9,7	97,4
Zarbdor	20,6	1,2	44,9
Zafarobod	11,0	0,7	44,0
Mirzacho‘l	4,4	0,2	20,9
Paxtakor	15,2	0,9	49,4
Forish	82,7	4,9	97,8
Yangiobod	7,7	0,5	95,0

### Ulgurji savdo tovar aylanmasida hududlar ulushi, % da



Ulgurji savdo aylanmasi hajmi o'tgan yilga nisbatan 106,0 foizni tashkil etdi, kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 75,0 foizni, hajmi esa 1 255,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Xususan, ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan hudud Jizzax shahri (54,6 %) hisoblanadi. Shuningdek, Do'stlik (9,8 %) va Zomin (9,7 %) tumanlari nisbatan past ulushga Arnasoy (0,2 %), Mirzacho'l (0,2 %), Yangiobod (0,5 %), hamda Zafarobod (0,7 %) tumanlariga to'g'ri keladi.